Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

Yangi texnologiyalardan, masalan, blockchain yoki islohotlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash lozim.

Huquqiy va regulyativ tizimni mustahkamlash: Huquqiy va regulyativ tizimning banklar sohasidagi yangilanishlarga mos ravishda rivojlantirilishi lozim. Bu, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investorlar uchun ishonchli muhit yaratishga yordam beradi. Bu orqali banklarning bankrot e’lon qilinish extimolligi kamayadi.

Kadrlar salmog’ini kengaytirish: O'zbekiston bozorining maxsus xususiyatlarini hisobga olgan holda, banklar sektoriga oid talablarni va kadrni rivojlantirish lozim. Bu, turli sohalar uchun mutaxassislar bilan xilma-xil tashkil etishni, shuningdek, moliyaviy va texnologik bilimlarni ko'paytirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Malikov Moliya nazariy asoslar o‘quv qo’llanma T. 2020-yil.
2. A. Omonov T. Qoraliyev Pul va banklar o‘quv qo’llanma darslik. T. 2018-yil.
3. lex.uz milliy qonunchilik ba’zasi.
4. openbyudjet.uz davlat ochiq ma’lumotlar ba’zasi.
5. stat.uz statistika agentligi.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki

ISLOM MOLIYA TIZIMINING O’ZBEKISTON BANK TIZIMIGA INTERIGATSIYALASHUVINING AYRIM JIHATLARI.

Suyarov Zokirjon Ergashevich
TDIU Andijon fakulteti
“Mutaxassislik,ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Muhammadaliyev Xusniddin Ahliddin o`g`li
TDIU Andijon fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom banki tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi jarayonlari tahlil qilingan. Islom bankining tamoyillari, ya’ni ribo (foiz)ga asoslanmagan moliyalashtirish, sheriklik asosidagi investitsiyalar va adolat tamoyillarining iqtisodiy ahamiyati batafsil yoritilgan. Shuningdek, uning zamonaviy moliyaviy bozorlar va global iqtisodiyotdagi o‘rni ham ko‘rib chiqilgan. Maqolada islom banklarining asosiy modellariga, jumladan, mudaraba, mushoraka, ijara va murabaha kabi moliyaviy vositalarga e’tibor qaratilgan. Hozirgi vaqtda islom banklari nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki boshqa mintaqalarda ham keng ommalashib

Published: 24.05.2025
Cite this article: Suyarov Zokirjon Ergashevich, Muhammadaliyev Xusniddin Ahliddin o`g`li (2025). Islom moliya tizimining O’zbekiston bank tizimiga interigatsiyalashuvining ayrim jihatlari. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/363
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

bormoqda. Mazkur maqola mazmunida islom banki tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilishi istiqbollari ham muhokama qilingan.

Kalit so`zlar: Islom moliyasi, moliyaviy operatsiyalar, savdo, islom madaniyat, ijara, murabaha, iqtisodiyot, modernizm.

Kirish.

Islom olamida tijorat va moliyaviy operatsiyalar kengayib, savdo yo'llari orqali boshqa madaniyatlarga ta'sir o‘tkazilgan. O‘sha davrda musulmon olimlari, xususan, Abu Yusuf, Muhammad ash-Shayboni va boshqa iqtisodchilar moliya va savdo masalalariga oid asarlar yozib, moliyaviy faoliyat qoidalarini rivojlantirishgan

Islomiy bank tizimining hozirgi zamonaviy shakli XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan. 1970-yillarda islomiy banklar tashkil etila boshladi.

1963-yil – Misrda birinchi islomiy bank – Mit Ghamr Savings Bank tashkil etildi. U ribosiz operatsiyalar tamoyiliga asoslangan edi.

1975-yil – Islom taraqqiyot banki (IDB) tashkil etildi. U islomiy moliya va taraqqiyotni rivojlantirishga qaratilgan xalqaro moliya muassasasi hisoblanadi.

Shundan so'ng, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Malayziya kabi mamlakatlarda islomiy banklar tez rivojlandi.

Hozirgi zamon (XXI asr) Hozirda islomiy moliya dunyo bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lib, turli moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taklif qiladi: sukuk (islomiy obligatsiyalar), ijara, murabaha va boshqalar. Islomiy banklarning global moliyaviy tizimdagi ulushi oshib bormoqda. Malayziya, BAA, Saudiya Arabistoni, Turkiya kabi mamlakatlar bu sohada yetakchi hisoblanadi.1 Islom banki nafaqat diniy tamoyillarga asoslanadi, balki moliyaviy barqarorlik, halollik va iqtisodiy adolatni ta'minlashni maqsad qiladi. Islomiy moliyada spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, qimor o‘yinlari, noaniqlik va hokazolar kabi ko‘plab taqiqlar mavjud bo‘lsa-da, „foizning barcha shakllari ribo va shuning uchun taqiqlangan “degan e’tiqod uning asosi bo‘lgan g‘oyadir."Ribo" so‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri „ortiqchalik yoki qo‘shimcha “ma’nosini bildiradi va „foiz”, „subo“, „ortiqchalik“, „ko‘paytirish“ yoki „qo‘shish“ deb tarjima qilinadi.

Islom iqtisodchilari Choudhuri va Malikning fikriga ko‘ra, qiziqishning yo‘q qilinishi xalifa Umar (milodiy 634-644-yillarda) davrida „to‘liq islom iqtisodiy tizimi bilan kulminatsiyaga uchragan ilk islomda bosqichma-bosqich jarayon ortidan sodir bo‘lgan.

Boshqa manbalar (Islom va musulmon dunyosi entsiklopediyasi, Temur Qur’on) bunga qo‘shilmaydi va ba’zida huquqiy hiylalar (hiyyal) yordamida) musulmon jamiyatida bu harakatlar davom etganligini ta’kidlaydi“. Shu jumladan Usmonli

imperiyasi davrida ham shunday bo‘lgan. Yana bir manbada (International Business Publications) aytilishicha, „Islom oltin davri” davrida islom huquqi va iqtisodining „klassik huquqshunoslari orasida riboga nisbatan umumiy nuqtai nazari“ oltin va kumush valyutalarga foiz qo‘llash harom bo‘lgan, lekin ribo emas va shuning uchun qog‘oz yoki oddiy metallar kabi boshqa materiallardan tashkil topgan pul birliklariga nisbatan foizlarni qo‘llash maqbuldir.

19-asr oxirida islom modernistlari Yevropaning qudrati va ta’sirining kuchayishiga hamda uning musulmon mamlakatlarini mustamlaka qilishiga munosabat bildirishdi, foiz stavkalari va sug‘urta amaldagi zamonaviy iqtisodiyotda „samarador investitsiyalar uchun dastlabki shartlar“ qatoriga kirishi yoki yo‘qligini qayta ko‘rib chiqishdi. Sayyid Ahmad Xon iste’mol uchun qarz berish to‘lovlari bilan cheklangan deb bilgan gunohkor riba „sudxo‘rlik“ va tijorat sarmoyasi uchun qarz berish uchun qonuniy noriba „foiz“ o‘rtasidagi farqni ilgari surdi. Biroq, 20-asrda islom uyg‘onish tarafdorlari islomchilar faollar barcha foizlarni riba deb belgilash, musulmonlarni qat’iy belgilangan stavkalardan qochgan „Islom banklari“da qarz berish va qarz olishga majburlash ustida ishladilar. 21-asrga kelib, bu islom banking harakati „dunyo bo‘ylab foizsiz moliyaviy korxonalar institutlarini” yaratdi. Agar to‘lanadigan foizlar investitsiya natijasida olingan foyda yoki zarar bilan bog‘liq bo‘lsa, Islomda qarz berishga ruxsat beriladi. Foyda tushunchasi islomda foyda, zarar va tavakkalchilikni teng taqsimlash ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Muhammad Navid kabi uyg‘onish tarafdorlari islom banki „dinning o‘zi kabi qadimgi, uning tamoyillari asosan Qur’ondan olingan“, deb ta’kidlasa-da, dunyoviy tarixchilar va islom modernistlari buni zamonaviy hodisa yoki „o‘ylab topilgan an’ana“ deb bilishadi. Ta’kidlanishicha, Zubayr ibn al-Avvomning mablag‘ yig‘ish biznesi deyarli foizsiz bank bo‘lgan. Zubayr pulni saqlash xizmatini texnik jihatdan o‘zgartirib, Zubayr to‘lashi shart bo‘lgan qarz bo‘lib, bu amaliyotga kashshof bo‘ldi. Zubayrning o‘z mijozlaridan foiz olinmasdan, xalqdan omonat qabul qilish amaliyoti Zubayrning vafoti chog‘ida 2 000 000 dinor miqdorida oshib ketgan qarziga duchor bo‘lishiga sabab bo‘lgan edi. Biroq, al-Zubayr mijozlarning omonat pullarini o‘zining daromadli biznesi uchun sarmoya qilgan, shuning uchun uning merosxo‘rlari oilasiga ko‘p meros qoldirib, qarzlarini to‘lashga muvaffaq bo‘lishgan. Uning o‘limidan so‘ng uning o‘g‘li Abdulloh ibn Zubayr mulkni 1.600.000 dinorga sotdi. Bu amaliyotga Ibn Taymiya o‘zining "Majmui fatvo "sida o‘xshagan mumtoz olimlarning ijmosiga ko‘ra ruxsat berilgan

Islomiy moliyada islom dinidagi shariat hukmlariga asoslangan moliyaviy amallar tushuniladi. Islomiy moliyaga shariat asosida amalga oshiriladigan ssudalar,

zakot, sadaqa va vaqf kiradi. Ularning har biri bilan batafsil tanishib, islomiy moliyaning kambagallik darajasini qisqartirishdagi ahamiyatini anglashimiz mumkin.

Islomiy mikroqarz qisqa muddatga kam taminlangan yoki iqtisodiy tomondan barqaror bolmagan shaxslarga beriladigan kichik miqdordagi qarzdir. Bu turdagi mikroqarz kichik va orta biznes yurituvchi shaxslar uchun ham mos keladi. Odatdagi moliya tizimidagi mikrokreditlar foizli qarz asosiga qurilgan bolib, unda qarz oluvchining ozigina tavakkal qiladi. Qarz beruvchi tashkilot banklarning yagona maqsadi boshqalarga qarz berish ortidan foyda olish boladi. Islomda foizli qarzga yol qoyilmaydi, bu holatga ribo deyiladi. Ribo islomda harom qilingan bolib, u nafs muqtai nazaridan ham ijtimoiy va iqtisodiy jihatlardan ham zararli amal hisoblanadi. Jamiyatda faqat ozining manfaatini ustun deb biluvchilar bolishi, ular odamlarning muhtojligidan foyda olishi odamlar orasidagi adovat va hasad tuygularini orttiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jamiyat bir-biridan katta farq qiluvchi tabaqaga bo’linib qoladi.

Islom moliya tizimiga ko’ra;

Qarz beruvchi ham va qarz oluvchi ham zararga sherik bolishi. Odatdagi mikrokredit tizimida faqatgina qarz oluvchi zararga kiradi, qarz beruvchi tashkilot doim foyda oladi.

Foydaga qarz beruvchi ham qarz oluvchi ham sherik boladi. Islomiy mikrokreditda ikki tomon hamkor, sherik sifatida ishlashi foydani ham ikki tomonga bolinishini talab qiladi.

Sudxorlik aralashmagan holda qarzni qaytarishning ozgarmas stavkasi amal qiladi.

Shaffoflik taminlanib ikki tomon huquq va majburiyatlari qarz shartnomasida ochiq yozilishi, ikkinchi tomonda esa ochiqlanmagan qarz shartlarining bolmasligi shart qilib belgilanadi.

Ijtimoiy farovonlik va adolat tamoillariga amal qilininadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lasak, Islom insonlarni tadbirkorlikka, kasbkorlarni organishga chaqirib, har bir musulmonga kifoya qilsa boladigan darajadagi rizqni halol mehnat qilib topishga targib etadi. Islom dini jamiyatdagi boy va kambagallarni hamjihatlikka va mehr oqibatga yollaydi. Islomning asosiy arkonlaridan bo‘lmish zakot aynan jamiyatdagi mulkiy tengsizlik va kambag‘allikni yechimi sifatida katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Shuningdek, islom dini g‘oyalarida kambag‘al va miskinlarga ehson qilishlik savobli amal sifatida musulmonlarga targ‘ib etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ahmadjonov, A Abdullayev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv muammolari. Science and Education, 2(10), 636-642.

2. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi 2010
3. Muhammadsodiq Muhammadyusuf “Islom tarixi”
4. Suyarov Zokirjon, Muhammadaliyev Xusniddin. Islom moliyasi va bank tizimi. Образование наука и инновационные идеи в мире Выпуск журнала №-59 Часть–8_Декабрь–2024.https://scientific-jl.org/obr
5. Ergashevich Zokirjon Suyarov, Alibek Husanov. Ijtimoiy himoya tizimining raqamlashtirish muammosi. Ilm-fan va ta'lim. Том 1. Номер 3.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ИҚТИСОДИЁТ ВА МАЪНАВИЯТ УЙҒУНЛИГИ

Набиев Маҳмуджон Маннобович
катта ўқитувчи
Қўқон Университети Андижон филиали
“Ижтимоий-иқтисодий фанлар” кафедраси.
Nabiyev@1976mail.ru

Инсоният тамаддуни ва жамият тараққиётида маънавият ҳамда иқтисодиётнинг ўрни беқиёс. Давлат ва жамиятни барқарор бошқаришда уларнинг ўзаро уйғунлиги муҳим ўрин тутади. Маънавият юксалган мамлакатда иқтисодиёт ҳам ривож топади. Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек: “Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. Биз янги Ўзбекистонни барпо этишга қарор қилган эканмиз, иккита мустаҳкам устунга таянамиз”.[1] Биринчиси, асарида таъкидлаганидек, моддият ва маънавият қушнинг икки қанотига қиёсланади. Шу маънода тарихга назар ташласак, қадимги Юнонистон ва Римда маънавият юксак чўққиларга кўтарилгани ҳаммага яхши маълум. Лекин, айнан шу даврда ушбу мамлакатлар иқтисоди ўша давр жаҳон иқтисоди тараққиётининг энг юксак чўқиллари бўлганини ҳамма ҳам билавермайди. Мамлакатимиз ҳам шундай фикр айтиш мумкин. Чунончи, IX – XV асрларда минтақамизда кескин маънавий юксалиш билан биргаликда иқтисодиёт соҳасида ҳам жонланиш рўй берди: фан ва маданият, дунёвий ва диний илмлар, адабиёт ва санъат ривож топди. Асрлар оша ўз кўрки ва тароватини сақлаб келаётган тарихий обидаларимиз ҳам ўша даврларда барпо этилган. Демак, тарихимиз гувоҳлик бераётганидек, жамият тараққиёти учун иқтисод ва маънавиятнинг уйғунлигини таъминлаш лозим.